

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI  
JANUBIY OSIYO TILLARI KAFEDRASI

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Malay tilida hisob so'zlar**

**5220100-Filologiya (sharq tillari)**

**Bajardi:** "Malay filologiyasi" ta'lim  
yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Dauletov  
Rustam Bahtiyarovich\_\_\_\_\_

(imzo)

**Ilmiy rahbar:** Janubiy Osiyo tillari  
kafedrasi o'qituvchisi Mirzayeva F.A.

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Ilmiy maslahatchi:** Janubiy Osiyo tillari  
kafedrasi dotsenti, f.f.n. Begizova X.B.

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Toshkent-2013**

## MUNDARIJA

|                                                                                             |           |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>I.KIRISH.....</b>                                                                        | <b>3</b>  |
| <b>II.ASOSIY QISM.....</b>                                                                  | <b>9</b>  |
| I Bob. Hisob so'zlarga umumiy tavsif.....                                                   | 9         |
| 1.1 Tilshunoslikda hisob so'zlar haqida ilmiy yondashuvlar.....                             | 11        |
| 1.2 Malay tilshunosligida hisob so'zlarning o'rganilish darajasi.....                       | 14        |
| II Bob. Hisob so'zlarning leksik-semantik, struktural tahlili.....                          | 18        |
| 2.1 Hisob so'zlarning leksik-semantik tahlili.....                                          | 18        |
| 2.2 Hisob so'zlarning struktural tahlili .....                                              | 33        |
| 2.3 Hisob so'zlarning funksiyasi.....                                                       | 33        |
| 2.4 Buah hisob so'zi.....                                                                   | 37        |
| III Bob. Hisob so'zlarning qo'llanishiga ko'ra turlari va matn asosida miqdoriy tahlil..... | 40        |
| 3.1 Hisob so'zlarining gapda ishlatilishi.....                                              | 40        |
| 3.2 Matn asosida hisob so'zlarning miqdoriy tahlili.....                                    | 60        |
| <b>III.XULOSA.....</b>                                                                      | <b>65</b> |
| <b>IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                          | <b>67</b> |

## KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng dunyo mamlakatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa bog'lash, hamkorlik qilish imkoniga ega bo'ldi. O'zbekiston va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan Malayziya bilan aloqalar ham rivojlandi va hayotning turli jabhalari, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va ta'lim sohasidagi aloqalar kundan-kunga mustahkamlanib bormoqda. Bu ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganligiga 20 yil to'ldi. Malayziya 1992-yil 1-yanvarda O'zbekiston mustaqilligini tan oldi, 1992-yil 21-fevralda esa davlatimiz bilan diplomatik munosabatlarini o'rnatdi.<sup>1</sup> Shundan buyon mamlakatlarimiz o'rtasida iliq va ishonchli aloqalar davom etib keladi. O'zbekiston va Malayziyani siyosiy jihatdan bir-birini o'zaro to'g'ri tushunish, xalqlarimizni esa diniy va madaniy qadriyatlarning mushtarakligi singari jihatlari bir-biriga yaqinlashtiradi.

O'tgan 20 yil davomida tomonlar xalqlarimizning o'zaro yaqinlashuvi va sayyohlar almashinuvining muhim omili hisoblangan madaniy-gumanitar aloqalar taraqqiyotiga ham katta e'tibor qaratdilar.

Tabiiyki, ikki tomonlama manfaatli aloqalar rivojida tilni mukammal o'zlashtirgan mutaxassis kadrlar, tilshunoslar va tarjimonlar muhim o'rin tutadilar. Shu ma'noda Tosh DShI da ham Janubiy-Sharqiy Osiyo tillaridan biri - malay tili 2004-yildan boshlab asosiy va qo'shimcha xorijiy til sifatida o'qitila boshlandi. Mamlakatimizda istiqlol yillarida oliy ta'lim tizimimiz ham qaytadan barpo etildi. Xorijiy tillarni o'rganishga e'tibor nihoyatda kuchaydi va hozirda ham mazkur masalaga alohida ahamiyat berilmoqda. Malay tilini o'rgatish va o'rganish ishlari yanada samarali shakllarga kirdi.

Bu o'z navbatida bugungi o'zbek yoshlarining chuqur va keng bilimga ega bo'lishi hamda kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shishlarini ko'zlab amalga oshirilgan ishlardir. Yurtboshimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlari ham fikrimizga dalil bo'la oladi:

---

<sup>1</sup> [www.google.com](http://www.google.com)

“Mamlakatimizda yoshlarimizga keng yo‘l ochib berish, shu borada 2008 yilga “Yoshlar yili” deb nom berishimiz, hayotga kirib kelayotgan navqiron avlodimizning bilim va tajriba egallashi, jamiyatda munosib o‘rin topishi...- bularning barchasi, xech shubhasiz, bugun biz qurayotgan yangi hayotning ildiz va poydevorini yanada mustahkamlashga zamin yaratmoqda.”<sup>2</sup>

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi vaqtda yurtimizda xorijiy tillarni o‘rgatish va o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, malay tilini o‘rganish mazkur til bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi va Malayziya davlati o‘rtasidagi keng qamrovli iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy aloqalarning rivojlanib borayotgani bu tilni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi.

Malay tilini puxta egallash, birinchidan, O‘zbekistonning Malayziya bilan olib borayotgan xalqaro aloqalarini yanada uzoq davom etishiga, ikki mamlakat o‘rtasidagi uzoq yillik madaniyat, san‘at va ilm-fan singari sohalardagi hamkorlikning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, malay tilining ichki qurilishini tadqiq etish, puxta o‘rganish kelgusida nafaqat o‘zbek o‘quvchilari tomonidan mazkur tilni osonroq o‘rganishlariga, balki o‘zbek tilining ham boshqa tillar bilan qiyosiy holda taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, mazkur bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzu bugungi kundagi dolzarb masalalardandir.

**Ilmiy yangiligi.** Hisob so‘zlarining qo‘llanish doirasi juda keng bo‘lganligi sababli, malay tiliga oid bo‘lgan qator kitoblarda bu haqida qisqacha ma‘lumotlar berib ketilgan. Ushbu til bo‘yicha O‘zbekistonda o‘quv qo‘llanmalar hali nashr etilmaganligi sababli vaqtincha xorijiy davlatlarda ingliz tilida chop etilgan adabiyotlardan foydalanishga to‘g‘ri keldi. Malay tiliga oid adabiyotlar ham malay va ingliz tillarida va ularda asosan malay tili grammatikasi, leksikologiyasi umumiy tahlil etilgan. Malay tilidagi hisob so‘zlar to‘g‘risida esa qisqacha

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta‘minlash-bizning oily maqsadimiz,, 17-tom, T., 2008 bet.4

ma'lumot berilib o'tilgan. Bu o'z navbatida malay tilini o'rganayotgan davlatimiz talabalari uchun yana bir qiyinchilik paydo qilishini hisobga olib, biz diplom ishimizni malay tilidagi hisob so'zlariga bag'ishladik.

**Nazariy va metodologik asoslar.** Avval ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda kelajagimiz poydevori bo'lmish yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuning barobarida ularga o'rgatiladigan fanlarning va xorijiy tillarning miqdori o'sib, yangilanib bormoqda. Yurtboshimiz bu borada quyidagilarni yozadilar:

“Mustaqil O'zbekistonimiz o'z ravnaqi yo'lidan borar ekan, asosiy o'rinda o'sib kelayotgan yoshlarga e'tiborni kuchaytirmoqda. Mamlakatimizni isloh etish va yangilash bo'yicha belgilab olgan yuksak maqsadlarimizga erishish yo'lida tom ma'noda hal qiluvchi kuch, tayanch va suyanch bo'lishga qodir yoshlar haqida gap bormoqda.<sup>3</sup>”

Hech shubhasiz, har jihatdan barkamol va bilimli yoshlarni tarbiyalash xorijiy tillarni chuqur o'rganish va o'rgatish usullarini rivojlantirishga ham sabab bo'ladi. Bizning bitiruv malakaviy ishimiz malay tilidagi asosiy masalalardan biri-hisob so'zlarni o'rganishga bag'ishlanar ekan, davlatimiz rahbariyati tomonidan xorijiy tillarga alohida e'tibor qaratilayotgani, bu borada qabul qilingan qarorlar, qonun, va farmonlar prezidentimizning turli ma'ruza va chiqishlaridagi aynan shu soha taraqqiyotini ko'zlab bildirgan fikrlari ushbu tadqiqotni amalga oshirishda biz uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuni yoritishda xitoyshunos, f.f.n. A.A. Karimov, bir qator rus malayshunos olimlari, jumladan, Kukushkina E.S, Darafeeva T.V, indonezshunos olim Arakin, malay olimlaridan Othman Sulayman, Abdul Hamid Mahmud, Farid Othman, Bahasa Othman va Noor Izzuddin Mat Zainlarning mazkur mavzu yo'nalishlarida amalga oshirgan izlanishlari, yaratgan qo'llanmalari nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Ishning tahliliy obyekti va predmeti, tadqiqot usullari.**

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodimizni barqaror rivojlantirish yo'lida., 16-tom T., 2008, bet. 234

Ishning tahliliy obyekti sifatida malay tilidagi hisob so'zlar tanlandi. Mavzu xarakteridan kelib chiqqan holda, ularning tildagi ahamiyati, o'ziga xos leksik-semantik, struktural va funksional belgilari tahlil etildi.

Ishning predmeti esa mavzu doirasida qalamga olingan va muhokama qilingan barcha muammoli masalalardir. Xususan, malay tilidagi hisob so'zlarni tashkil etgan komponentlarning yakka holda ifodalagan ma'nosi va ularning otlar bilan kelgandan keyin ma'nolardagi o'zgarishlarni farqlash, qiyoslash muammosiga alohida urg'u berildi.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash davomida kuzatish, tahlil, umumlashtirish, so'rov kabi usullardan foydalanib, izlanishlar olib bordik.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ishimizni maqsadi malay tilidagi hisob so'zlarning tuzilishi jihatidan tahlilini ko'rib chiqish, tasniflash, ularning o'ziga hos hususiyatlarini yoritib berish va tilni, tilning o'ziga xosligini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatib berishdir. Shuningdek, malay tilida hisob so'zlarni kengroq yoritib berish va o'zbek tili bilan solishtirgan holda ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib berishdir.

Shundan kelib chiqqan holda, biz o'z oldimizga quyidagi vazifalarni qo'yamiz:

- ✓ Malay tilidagi hisob so'zlarga umumiy tavsif berish, malay tiliga oid turli ilmiy adabiyotlarni kuzatgan holda ularning to'liq ta'rifini berish;
- ✓ Malay tilidagi hisob so'zlarning leksik tahlilini amalga oshirish va bu orqali malay tili lug'at tarkibining hisob so'zlar vositasida ichki va tashqi manbalar orqali qanday boyib borganini ko'rsatib berish;
- ✓ Hisob so'zlarning leksik-semantik tarkibini tahlil etish, ular ifodalagan ma'nolarni izohlab berish hamda o'ziga hos hususiyatlarini yoritib berish;
- ✓ Malay tilidagi hisob so'zlarning turkumlarga ajratish masalasining holatini tadqiq etish;

- ✓ Malay tilidagi hisob so'zlarning turkumlar bo'yicha tasnifini amalga oshirish.

**Ishning ilmiy ahamiyati.** Malay tilidagi hisob so'zlar mavzusi keyinchalik yurtimiz olimlari tomonidan malay tili leksikologiyasi, leksikografiyasida hisob so'zlarni o'rganish bo'yicha yangi izlanishlarga yo'l ochadi deb umid qilamiz.

**Ishning amaliy ahamiyati.** Malay tilidagi hisob so'zlar mavzusi malay tili leksikologiyasi, leksikografiyasini o'rganish va o'rgatishda yordamchi qo'llanma sifatida foydalanishga tavsiya etilishi mumkin. Malay va o'zbek tilidagi hisob so'zlar bir-biriga ma'no va tuzilish jihatidan ancha yaqin. Shu bois bu tadqiqot, malay tilini o'zbek tilida o'rganuvchi talabalar o'qish jarayonida ushbu mavzuni oson qamrab olishlari uchun keng zamin yaratadi. Bu ushbu BMI ning amaliy ahamiyatini o'zida namoyon qiladi.

**Ishning tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, nazariy va metodologik asoslari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, maqsad va vazifalari kabilar haqida ma'lumot berildi.

Asosiy qismning I bobi "Hisob so'zlarga umumiy tavsif" deb nomlanib bu ikki qismdan iborat: 1.1 Tilshunoslikda hisob so'zlar haqida ilmiy yondashuvlar.

1.2 Malay tilshunosligida hisob so'zlarning o'zganilish darajasi.

Ishning II bobi "Hisob so'zlarning leksik-semantik, struktural va funksional tahlili." 2.1 Leksik-semantik tahlil; 2.2 Struktural tahlil; 2.3 Funksiyasi; Buah hisob so'zi haqida. Bunda hisob so'zlarning har tomonlama tahlili amalga oshiriladi.

III bob "Hisob so'zlarning qo'llanishiga ko'ra turlari va matn asosida miqdoriy tahlil." 3.1 Hisob so'zlarining gapda ishlatilishi;

3.2 Matn asosida hisob so'zlarning miqdoriy tahlili.

Bu bobda bugungi kunda malay tilida hisob so'zlarni qo'llanishiga ko'ra turlarga ajratish masalasi tahlil etiladi va matn asosida hisob so'zlarining miqdori aniqlanib tahlil etiladi.

Ishimizning xulosa qismida bitiruv malakaviy ishni yozish davomida o'rganilgan, tahlil qilingan barcha masalalar yuzasidan zaruriy ilmiy xulosalar chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ishni yozish jarayonida bevosita qo'llanilgan ilmiy va nazariy adabiyotlar, internet saytlari va o'quv qo'llanmalari nomlari keltiriladi.

## ASOSIY QISM

### I BOB. HISOB SO'ZLARINING UMUMIY TAVSIFI

Malay tili Janubiy-Sharqiy Osiyodagi juda qadimiy tillardan biri hisoblanib, u Austroneziya tili oilasidagi Nusantara tarmog'iga kirgan. Bu tarmoqda malay tilidan tashqari ikki yuzga yaqin til mavjud bo'lgan.<sup>4</sup> Austroneziya til oilasi esa o'z navbatida Nusantara va Tibet-Xitoy til oilasi bilan birgalikda Austris til oilasiga kirgan. Malay tili hozirda ko'plab davlatlarda foydalanib kelinmoqda. Bular: Indoneziya, Singapur, Brunej.<sup>5</sup>

Malay tilida hisob so'zlar "Penjodoh bilangan" deb atalib, biror narsa, predmetning miqdorini nazarda tutganimizda nafaqat son va turdagi otlardan iborat so'zlar, balki shu izohlanayotgan otning sifati hamda belgisini aniqlovchi va ularni ma'lum bir kategoriyalarga ajratuvchi turli xildagi hisob so'zlar qo'llanadi.<sup>6</sup>

Bu so'zlar sanoq son bilan sanaladigan predmetni ifodalovchi so'z orasida kelib, ularning og'irligiga, uzunligiga, hajmiga, shakily belgilari va boshqa shunga o'xshash hususiyatlariga ko'ra o'lchovini bildiradi.

Hisob so'zlar predmetning qanday yo'l bilan sanalish hususiyatiga qarab qo'llanadi. Hisob so'zlarning qo'llanishdagi turlari ulardan kundalik turmushda foydalanuvchi xalqning fikrlash tarziga asoslanadi. Barcha so'zlar mazmuni va ularning fizik sifatlari, hususiyatlariga ko'ra gap va so'z birikmalari ishtirokida turli o'ziga xos hisob so'zlari bilan qo'llaniladi. Hisob so'zlar ko'pincha ot turkumidagi so'zlardan iborat bo'lganligi sababidan, ular o'z mustaqil, leksik ma'nolariga ega.<sup>7</sup>

Predmetning soniga ko'ra belgisini ifodalovchi sanoq sonlar bilan ba'zan predmetlarning hisobini ko'rsatuvchi so'zlar hisob so'zlari (numerativlar) bilan birga qo'llanadi.

Bu so'zlar sanalayotgan konkret predmetni ko'rsatmay o'sha predmetni hisoblashda uning qaysi kategoriyaga, guruhga oid ekanligini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu so'zlar sanoq son bilan sanaladigan predmetni ifodalovchi so'z

---

<sup>4</sup> Farid Othman. Tatabahasa Dewan Edisi baharu., KL., bet. 25

<sup>5</sup> [www.BahasaMelayu.com](http://www.BahasaMelayu.com)

<sup>6</sup> Bahasa Othman "111 penjodoh bilangan"bet.3

<sup>7</sup> Malco M. Mit. W , "A course in conversational Indonesia",Pan Pacific Publishing.,bet. 4

orasida kelib, ularning og'irligiga, uzunligiga, hajmiga joylashish o'rniga va boshqa shunga o'xshash xususiyatlariga ko'ra o'lchovini bildiradi. Hisob so'zlari shu predmetning qanday yo'l bilan sanalish xususiyatiga qarab qo'llanadi.

Hisob so'zlari ko'pincha ot turkumidagi so'zlardan bo'ladi: dona, nusxa, tup, bog'lam, siqim, tutam kabi.<sup>8</sup>

Malay tilida so'zlarning ishlatilish doirasi juda keng va turli-tumandir.

Qadimdan predmetlarni o'lchash uchun turli idishlar yoki boshqa o'lchov vositalari ko'plab ishlatilgan. Ularning ayrimlari hozirgi tilda o'lchov vositasi sifatida yo butunlay qo'llanilmaydi, yoki ishlatilish doirasi torayib, passivlashib qolgan.

Keyingi paytlarda iste'moldan chiqib borayotgan yoki juda kam ishlatilayotgan hisob so'zlari o'rniga malay tiliga ingliz tilidan va ingliz tili orqali boshqa tillardan hisob so'zlari kirib kelmoqda yoki malay tilining o'z imkoniyatlari asosida yangi hisob so'zlari paydo bo'lmoqda.<sup>9</sup>

Odamlar dunyodagi barcha narsalarni har birining sanog'iga qarab toifalarga bo'ladi. Bu biror bir tilni oson, chiroyli va o'ziga xos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Toifalarga bo'lish bilan yana aytilmoqchi bo'lgan obyekt bilan mos bo'lgan hisob so'zlarning ishlatilishi aniqlashadi.

Hisob so'zlar sanoq so'zlar bilan birga aniq otlarni sanash uchun ishlatiladi (ba'zan mavhum otlar bilan ham ishlatilishi mumkin). Masalan odam, hayvon, joy va shu kabilar. Hisob so'zlar sonni otga bog'lashda xizmat qilib, uni sonini aniqlab keladi.

Zamonaviy malay tilida ko'p joylarda hisob so'zlarni tushirib qoldirishi mumkin. Misol uchun odamlar bilan ishlatiladigan orang hisob so'zi: *dua pelajar*, *dua orang pelajar* (ikkita talaba).

1 (**satu**) sonini ko'rsatish uchun, u so'zining o'rniga **se-** qo'llaniladi. Bu so'z ingliz tilidagi **a** noaniq artikliga to'g'ri keladi: *Mereka nampak sebatang sungai*. – "Ular daryoni ko'rishdi."

---

<sup>8</sup> M.Asqarova, A.Hojiyev, Sh.Shoabdurahmonov, H.Doniyorov "Hozirgi o'zbek adabiy tili", T., I-qism, bet., 1980, bet. 265-266

<sup>9</sup> M.Asqarova, A.Hojiyev, Sh.Shoabdurahmonov, H.Doniyorov "Hozirgi o'zbek adabiy tili", T., I-qism, bet., 1980, bet. 265-266

Hisob soʻzlarni ishtirokisiz odam, hayvon, joy, narsa-buyum kabi har bir aniq otni toʻliq deb boʻlmaydi. Bundan tashqari hisob soʻzlar narsalarni tashqi koʻrinishiga qarab ham ishlatilishi mumkin. Bunda ot foydalanilib kelayotgan narsa bilan birga sanaladi.

Odam, hayvon, joy va narsa-buyum kabi har bir aniq otning oʻziga xos hisob soʻzlari bordir.

Hisob soʻzlar sanoq sonlar bilan birga ishlatiladi. Gap tarkibida hisob soʻzlar aniq otdan oldin va sanoq sonidan keyin qoʻyiladi (aniq otni sanash uchun).<sup>10</sup>

Hisob soʻz gap tarkibida quyidagicha ketma-ketlikda keladi:

Sanoq son + Hisob soʻz + Ot

Bu quyidagicha aks etadi:

*Fahmi mempunyai sebuah kereta.*

*Kata bilangan: se(satu)*

*Penjodoh bilangan: buah.*

*Kata nama konkrit: kereta.*

Fahmining bir dona mashinasi bor.

Sanoq soʻz: bir.

Hisob soʻz: dona.

Aniq ot: mashina.

### **1.1 Tilshunoslikda hisob soʻzlar haqida ilmiy yondashuvlar.**

Malay tilining kelib chiqishi haqida koʻplab manbalarda maʼlumotlar mavjud. Qadimdan Janubiy-Sharqiy Osiyo hududiga Yunoniston tomondan malay tilida soʻzlashuvchi aholi kelib joylashgan. Xitoy manbalarida ham malaylar toʻgʻrisida maʼlumotlar bor. U manbalarda ilk bor malaylar “Moloyu” deb nomlanganlar. Yava orolidan ibtidoiy odam qoldiqlari topilganligi Malay arxipelagida qadimdan odamlar yashaganligidan dalolat beradi. Hozirda malay

---

<sup>10</sup> 111 penjodoh bilangan Bahasa Othman., Nur Izzuddin Mat Zain., Malayziya., 2006. bet.3

tilida so'zlashuvchi aholi soni kundan-kun ko'paymoqda. Malay tili asosan Malayziya, Brunej, Singapur, Indoneziya kabi davlatlarda asosiy til sifatida qo'llanilib kelinmoqda.<sup>11</sup>

Albatta, tilshunoslikda hisob so'zlari haqida shu kungacha ko'plab ilmiy ishlar qilingan, izlanishlar olib borilgan. Ilmiy izlanishlar hisob so'zlariga bag'ishlanganligi sababli asosiy izlanish manbai so'zdir. Tilshunoslikda eng ko'p ixtiloflarga sabab bo'lgani so'z tushunchasi bo'lsada, biroq harfiy tillar uchun so'z tushunchasi umuman aniq ko'rsatilgan, masalan A.Hojiyevning "Lingvistika atamalarining izohli lug'atida" so'zning ta'rifini topishimiz mumkin.

Matn va nutq ichidan so'zni ajratib olish va uni so'z deb bilish nazariyasi A.I. Smirnitskiy "K voprosu o slove" maqolalarida izohlab bergan.

Bevosita hisob so'zlar masalasiga kelsak, maxsus adabiyotlarda ularni "klassifikatori", ya'ni saralovchilar deb nomlashadi. Bundan tashqari "numerativ" va "chislovoy determenativ" atamaları ham qo'llaniladi. "Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar"da klassifikatorlarni "so'zlarning leksik-grammatik qatlami deb, ular qator tillarda (son+ot) hisob konstruksiyalari bilan qo'llanish uchun xizmat qiladilar" degan izoh berilgan.

Hisob so'zi nafaqat malay, balki boshqa janubiy-sharqiy tilarda hamda turkey tillarda mavjudligi ma'lum. Bu borada Kulverning "Xitoy, Vietnam vat ay tillarida saralovchili konstruksiyalar" maqolasi, P. Xamdamovning "Hozirgi o'zbek tilida numerativlar" monografiyasi yozilgan.<sup>12</sup>

Xitoyshunos f.f.n. A. Karimov o'zining "Xitoy tilida hisob so'zlar" monografiyasida xitoy tilidagi hisob so'zlarni keng va atroflicha yoritib beradi. Ularni har tomonlama tahlil qilib, o'ziga hos jihatlarini ochib beradi.

Malayshunoslikda hisob so'zlariga bag'ishlangan alohida izlanishlar bo'lmasa-da, qator grammatikaga oid kitoblarda shu masala bo'yicha ma'lumotlar va qarashlar mavjud. Masalan, rus malayshunoslaridan Darafeeva va

---

<sup>11</sup> Истоия Малайзии. В. А. Тюрин. Издательство "НАУКА" МОСКВА 1980. bet.7-8

<sup>12</sup> [www.google.com](http://www.google.com)

Kukushkina”Uchebnik malayskogo yazika” kitobida, Arakin “Grammatika Indoneziskogo yazika” kitoblarida o’z qarashlarini bayon etgan.

Malay tilshunoslarining juda ko’pchiligi kitob va maqolalarida hisob so’zlar masalasiga o’z munosabatlarini bildirishgan, albatta shulardan Baxasa Usmon, Usmon Sulaymon, Noor Izzudin Mat Zainlarning fikrlari qimmatlidir.

Yuqorida sanab o’tilgan olimlarning hisob so’zlarga bo’lgan ilmiy yondashuvlarini alohida tahlil qilish zarurligi shundan bilinadiki, ularning ko’pchiligi ushbu til hodisasini har xil atamalar bilan nomlashadi, biri mustaqil desa, boshqasi hizmat qiluvchi yoki yordamchi so’zlarga kiritadi, alohida so’z turkumi sifatida ajratishadi yoki ajratishmaydi.

Biron bir masalani yoki muammoni yechishda albatta izchillik va tizimlilik kerak. Biz mavzuimizni yoritishda aynan shundan kelib chiqishga harakat qildik. Avvalam bor, tadqiq qilinadigan narsa aniqlab olindi, ya’ni hisob so’zlar yozuvda va nutqda nima nima bilan ifodalanadi, ular qanday ajratib olinadi. Keyingi bosqichdagi ish, maxsus adabiyotda bu masala qanday yoritilganligiva ularning tahlili.

“Har bir til hodisasi ta’riflanishda ikki tomondanko’rilishi lozim: sifat va miqdor” deb yozadi V.I. Koduxov “Umumiy tilshunoslik” kitobida. Buni boshqa yirik tilshunoslar ham ta’kidlaganlar, shulardan V.G. Admoni “Kachestvenniy I kolichestvenniy analiz grammaticeskix yavleniy”, L.R. Zinder, T.V. Stroeve “K voprosu o primenenii statistiki yazikovedenii” maqolalari hammaga ma’lum.<sup>13</sup>

Malay tilidagi hisob so’zlarning miqdorini aniqlash, ularni matnda va nutqda uchrash miqdorini bilish, albatta, sifatlash va ta’riflashda o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shuningdek malay tilidagi hisob so’zlar ichida eng ko’p uchraydigani bu buah hisob so’zidir. Bundan taashqari buah hisob so’zi donabay hisob so’zlarning hammasini o’rnini bosa olishi va o’rnida ishlatilishi mumkin. Shu sababdan uning alohida o’rganilishi lozim.

Hisob so’zlarni tadqiq etish leksik-semantik tahlil bilan bog’liq. Hisob so’zlarning semantikasi bilan yana bir narsa bog’liq, bu hisob so’zlarning tuzilishi.

---

<sup>13</sup> A.Karimov “Xitoy tilida hisob so’zlar”., T, 2003, bet. 8

Tuzilish jihatdan hisob so'zlar bir necha turlarga bo'linishi mumkin, shulardan biri bevosita hisob so'zlarning ma'nosiga ta'sir o'tkazadigan turlaridir.

Yuqoridagi masalani yoritishda biz rus, malay olimlari kitoblaridan va internet sahifalaridan foydalandik.

## **1.2 Malay tilshunosligida hisob so'zlarning o'rganilish darajasi**

Baxasa Usmonning "111 Penjodoh bilangan" ("111 ta hisob so'z") kitobida malay tilidagi hisob so'zlar haqida ma'lumot berilgan. Lekin bu kitob malay tilidagi hisob so'zlar haqida to'liq va yetarlicha ma'lumot beradi deb bo'lmaydi. Chunki bu kitobda deyarli barcha hisob so'zlar tub malay tilidagi hisob so'zlardan iborat bo'lib, bu ham o'z navbatida to'liq emas.

Bu kitobda boshqa tillardan o'zlashgan hisob so'zlar haqida ma'lumot deyarli yo'q. Bundan tashqari, hisob so'zlar faqat aniq otlar bilan qo'llaniladi deyilgan. Aslida esa hisob so'zlar mavhum otlar bilan ham ishlatiladi. Bu haqida kitobda ma'lumot yo'q, aniq otlar bilan birga ishlatilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham to'liq deb bo'lmaydi.

Umuman olganda, bu kitobda malay tilidagi hisob so'zlar keng yoritilib berilmagan. Hisob so'zlarni ma'lum guruhlariga bo'linib, tahlili ham amalga oshirilmagan. Faqatgina hisob so'zlar ro'yxati keltirilib, har-bir hisob so'zga misollar keltirilib, izohlangan.

Biz o'zimizning BMI da ushbu jihatlarini tahlil qildik.

Xitoyshunos, f.f.n. A.A. Karimovning "Xitoy tilidagi hisob so'zlar" monografiyasida esa hisob so'zlar haqida to'liq va yetarlicha ma'lumotlar berilgan. Har bir hisob so'z keng va atroflicha yoritilgan.

Bu kitobda hisob so'zlar muammosi, hisob so'zlarning leksik-semantik tahlili, ularning tuzilishi, hususiyatlari, qo'llanilishiga ko'ra turlari, gapdagi vazifasi, funksiyonal hususiyatlari berilib o'tilgan. Bu monografiyada qadimgi xitoy tilidagi hisob so'zlaridan to zamonaviy xitoy tilidagi hisob so'zlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Umuman olganda, bu kitobda hisob so'zlarining ahamiyati keng va atroflicha yoritilgan.

Baxasa Usmonning “111 Penjodoh bilangan” kitobida hisob so'zlarining ahamiyati keng yoritilib berilmagan. U hisob so'zlarini bitta narsa-buyum bilan kelganda ingliz tilidagi *a, an* noaniq artikllariga teng deb ta'kidlaydi, ya'ni bu bilan hisob so'zlar tushirilib qoldirilsa ham hech qanday ma'no o'zgarishi sodir bo'lmaydi deb aytadi. U bu fikri bilan hisob so'zlarining ahamiyatini pasaytirib yuborayapti. Vaholanki, hisob so'zlarsiz otlarni sanash to'liq deb bo'lmaydi. Misol:

*Saya ada sebuah buku.* “I have a book.” “Menda (bitta) kitob bor.”

*Saya membeli dua ekor anjing.* “I bought two dogs.” “Men (ikkita) kuchuk sotib oldim.”

“111 Penjodoh bilangan” kitobida hisob so'zlarining qo'llanishiga ko'ra turlari keng yoritilib berilmagan. Bunda og'irlik o'lchovi, pul birliklari, uzunlik o'lchovlari, vaqt bilan bog'liq hisob so'zlari berilmagan.

Malay olimi Usmon Sulaymon o'zining “Malay for everyone” kitobida malay tilidagi hisob so'zlarni ingliz tili bilan solishtirib, taqqoslab chiqqan. U ham Baxasa Usmon kabi malay tilidagi hisob so'zlar ingliz tilidagi *a, an* artikllariga to'g'ri keladi deb aytgan. Ko'plikda esa ingliz tilidagi sonlar bilan ishlatiladi. Misol:

|                               |                 |                               |
|-------------------------------|-----------------|-------------------------------|
| <i>Tiga orang polis</i>       | three policemen | uchta militsiya xodimi        |
| <i>Sepuluh orang penuntut</i> | ten students    | o'nta talaba                  |
| <i>Lima ekor kambing</i>      | five goats      | beshta echki                  |
| <i>Sebuah pulau</i>           | an island       | bitta orol                    |
| <i>Tiga buah rumah</i>        | three houses    | uchta uy                      |
| <i>Sembilan biji telur</i>    | nine eggs       | to'qqizta tuxum <sup>14</sup> |

Rus malayshunos olimalari Darafeeva T.V. va Kukushkina E.S. esa malay tilidagi hisob so'zlarini quyidagi modelini ko'rsatadi:

Sanoq son+hisob so'z+ot

---

<sup>14</sup> Osman Sulayman “Malay for everyone”, Malaysiya, 2009, bet. 37

Hisob so'zlar ot va sonni bog'lashga hizmat qilib, odam, narsa-buyum, hayvonlarning tashqi ko'rinishiga qarab, ya'ni tashqi belgilariga ko'ra qo'llaniladi. Ular ham *satu* ("bir") soni bilan kelgan hisob so'zlar ingliz tilidagi *a, an* noaniq artikllariga teng deb aytadilar.<sup>15</sup>

Lekin biz *satu* sonini *pasang* ("juft") hisob so'zi bilan ishlatsak gapning tuzilishi o'zgarib ketadi. Misol:

*Sepasang kasut*     a pair of shoes     bir juft tufli.

Sanalmaydigan otlarni hisoblash uchun ma'lum hisob so'zlar ishlatiladi.

Misol:

*Tiga botol peps*                      uch shisha peps

*Dua gelas susu*                      ikki stakan sut

*Berapa* ("qancha, neshta") so'roq olmoshi otlarning sonini bilish uchun ishlatiladi.

*Berapa* so'roq olmoshi hisob so'zlardan avval qo'yiladi. Misol:

*Berapa orang ada di sini?*     ramai orang

Bu yerda neshta odam bor?     Ko'p odam

Agar darak gapda hisob so'z ishtirok etsa u savolda ham o'z aksini topadi.

Misol:

*Budak nampak seekor burung. Berapa ekor burung budak nampak?*

Sanoq sonlar hisob so'zlar bilan birga kesim vazifasida ham kelishi mumkin, lekin miqdoriy kesimga berilgan savolda hisob so'zi saqlanib qoladi. Misol:

*Anak Puan berapa orang? Berapa orang anak Puan?* „Sizda (xonim) neshta bola bor?“

Shuningdek, rus olimalari vaqt bilan bog'liq hisob so'zlarni ham keng yoritib berishadi. Misol:

*Pukul*                      soat

*Suku*                      chorak (15 min)

*Minit*                      daqiqa

---

<sup>15</sup> "Учебник малайского (малайзийского) языка". Дарафеева Т.В., Кукушкина Е. С. 2006 год. Bet. 79

|               |                   |
|---------------|-------------------|
| <i>Tahun</i>  | yil               |
| <i>Bulan</i>  | oy                |
| <i>Minggu</i> | hafta             |
| <i>Hari</i>   | kun <sup>16</sup> |

---

<sup>16</sup> “Учебник малайского (малайзийского) языка”. Дарафеева Т.В., Кукушкина Е. С. 2006 год. Вет.79

## II BOB. HISOB SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK STRUKTURAL VA FUNKSIONAL TAHLILI.

### 2.1 leksik-semantik tahlil

Hozirgi zamon hisob so'zlarining mohiyatini bilish uchun, albatta, ularni ishlatish tarixini va qadimgi tildagi o'rnini bilishimiz kerak. Ushbu bobda biz hisob so'zlarining qadimgi malay tilida ishlatish modellarini qisqacha yoritib beramiz.

Qadimgi malay tilida hisob so'zlar hozirgi malay tiliga nisbatan kamroq tarqalgan va qo'llanish jarayoni keng bo'lmagan, biroq ularning mavjudligini hech kim inkor qilolmaydi. Hozirgi zamon malay tiliga o'xshab qadimgi malay tilining hisob so'zlari ham ikki katta guruhga bo'linishi mumkin:

1.Nom hisob so'zlari

2.Harakat hisob so'zlari

#### **Nom hisob so'zlarining qadimgi malay tilida qo'llanishi.**

Xronologik jihatdan nom hisob so'zlari harakat hisob so'zlariga nisbatan ancha ilgari paydo bo'lgan. Shuni qayd qilishimiz kerakki, shu davrda ishlatilgan hisob so'zlari asosan o'lchov birliklari edi, y'ani og'irlik, uzunlik... birliklari.

Ma'lumki, tildagi har bir narsa hozirgi paytdagi biron-bir shaklga kelguncha ma'lum vaqt ichida shakllanish jarayoni o'tadi. Til o'zining tarixiy rivojlanish jarayonida o'zida biron bir grammatik ma'noni ifodalash uchun har xil vositalarni va usullarni ishlatib ko'radi.

Model: "son+hisob so'z+ot"

*Dua orang sahabat saya pergi ke rumahku.*

"Ikki nafar o'rtog'im mening uyimga kelishdi."

Yuqoridagi keltirilgan misol otlarning miqdorini ifodalash uchun ishlatiladi.<sup>17</sup>

#### **Harakat hisob so'zlarining qadimgi malay tilida qo'llanishi.**

Harakat hisob so'zlari nom hisob so'zlariga qaraganda ancha keyin paydo bo'lgan.

Model: "fe'l+son+hisob so'z"

---

<sup>17</sup> A.Karimov "Xitoy tilidagi hisob so'zlar", Toshkent, 2003, bet. 24

*Saya pergi ke sekolah lima kali seminggu.*

“Men maktabga bir haftada besh marta boraman.”

Ushbu modelga keltirilgan misolda son bilan hisob soʻzi birikib miqdor birikmasini hosil qiladi.

### **Hisob soʻzlarining miqdori haqida.**

Albatta, hisob soʻzlarining sonini bilish katta ahamiyatga ega va muhimdir. Malay tilidagi hisob soʻzlarining miqdorini bilish, uning tildagi oʻrnini, vazifasini va ahamiyatini aniqlashda katta yordam beradi. Biroq hozirgi malay tilida hisob soʻzlarning miqdori juda ham koʻp masalalarga bogʻliq. Birinchidan, ilm-fan tilida yangi atamalar va tushunchalar koʻpaygan sari, hisob soʻzlarning bir turi boʻlmish yangi oʻlchov birliklari ham koʻpayib bormoqda. Masalan: amper-soat, amper-sekund. Bunday misollarni biz oʻnlab keltirishimiz mumkin. Ikkinchidan, hisob soʻzlarning ichidagi vaqtli yoki bizni nomlashimiz boʻyicha muvaqqat hisob soʻzlarning mavjudligi. Bunday hisob soʻzlar aslida boshqa bir soʻz turkumiga oid boʻlishadi, lekin zarur boʻlganda hisob soʻzlarning oʻrnida qoʻllaniladi. Muvaqqat hisob soʻzlarning misolida quyidagilarni keltirishimiz mumkin, masalan, otlarga mansub boʻlgan *gelas* “stakan”, *ekor* “dum”, *orang* “odam”, *bakul* “savat”, *biji* “urugʻ”, *botol* “shisha”, *buah* “meva”, *cawan* “stakan” va shu kabi muvaqqat hisob soʻzlari sifatida ishlatilishi mumkin:

*Seorang perempuan* “bitta ayol”;

*Dua botol susu* “ikki shisha sut”;

*Secawan air* “bir stakan suv”.

Ushbu sanab oʻtilgan hisob soʻzlarining hammasi adabiy malay tilida uchraydi va ishlatiladi.

Yuqorida koʻrsatilgan masalalar hisob soʻzlarning miqdorini aniq belgilashni qiyinlashtiradilar. Shunga qaramasdan ayrim manbalarda hisob soʻzlarining soni berib oʻtilgan. Masalan, Bahasa Othman va Noor Izzuddin Mat Zainlarning “111 Penjodoh bilangan” (111 ta hisob soʻz) kitobida hisob soʻzlarni taxminan 111 dona deb belgilagan. Bu kitob 2005-yil Malayziyada nashr etilgandir, demak 2005-yilgacha boʻlgan tilning holatini aks ettiradi.

Bizga ma'lumki, Malay tilshunosligida ham hisob so'zlarning miqdori alohida o'rganilmagan. Deyarli barcha kitoblarda ot, fe'l, sifat va boshqa so'z turkumlari qatorida hisob so'zlarining miqdorini aniq aniqlanmagan.

Odatda ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli hisob so'zlar ko'proq biron sohaga oid maxsus matnlarda uchraydi, biroq umumiy va badiiy-adabiy tillarda ham ishlatiladi.

### **Hisob so'zlarning leksik-semantik tasnifi.<sup>18</sup>**

Hozirgi zamonaviy malay tilidagi hisob so'zlar ikki katta toifaga: nom hisob so'zlari va harakat hisob so'zlariga bo'linadi.

#### **Nom hisob so'zlari**

Nom hisob so'zlari faqat otlarning miqdorini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan hisob so'zlaridir. Nom hisob so'zlari ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi: maxsus hisob so'zlar va muvaqqat hisob so'zlar.

#### **Maxsus hisob so'zlar.**

Maxsus hisob so'zlarga shunday hisob so'zlar kiradiki, ularning tildagi asosiy vazifasi hisob so'zi bo'lishidir, yani bu ularning doimiy vazifasidir.

Maxsus hisob so'zlar o'z navbatida beshta turga bo'linadi:

**Donabay hisob so'zlar.** Donalab hisoblanadigan otlar bilan qo'llaniladigan hisob so'zlar donabay hisob so'zlar deb ataladi. Donalab hisoblanadigan otlarga tirik jonzotlarni, buyumlarni va narsalarni bildiruvchi so'zlar kiradi.<sup>19</sup>

Ko'pincha birgalikda qo'llaniladigan hisob so'zi va ot bir-birlari bilan semantik jihatdan bog'liq bo'ladi. Masalan:

*Gulung* "o'ram" ma'noli hisob so'zi, odatda, o'raladigan, ingichka, uzun narsalarni bildiruvchi otlar bilan qo'llaniladi:

*Segulung tali* "bir o'ram arqon"

---

<sup>18</sup> A. KArimov "Xitoy tilida hisob so'zlar" Toshkent, 2003, bet.49

<sup>19</sup> A. KArimov "Xitoy tilida hisob so'zlar" Toshkent, 2003, bet.49

Segulung tikar “bir o’ram matras”

Bidang “kenglik”, odatda keng narsalar va maydon uchun ishlatiladi, masalan:

Sebidang tanah “bitta yer”

Sebidang sawah “bitta sholizor”

Biji “urug’” ko’pincha kichkina, yumaloq narsalar uchun ishlatiladi, misol:

Sebiji pinggan “bitta likobcha”

Sebiji telur “bitta tuxum”

Ekor “dum” hayvonlar bilan ishlatiladigan hisob so’z, misol:

Seekor anjing “Bitta kuchuk”

Seekor harimau “bitta yo’lbars”

**Jamlovchi hisob so’zlari.** Jamlovchi hisob so’zlar ko’pincha juft yoki bir guruh donalab hisoblanadigan otlar bilan birga ishlatiladigan hisob soz’lardir.

<sup>20</sup>Masalan:

Seangkatan tentera “bir guruh harbiylar”

Searmada kapal-kapal “bir flot kemalar”

seberkas-kayu api “bir bog’ o’tin”

segerombolan perusuh “bir to’da qo’zg’olonchilar”

sejambak kunci “bir bog’lam kalit”

sekawan rusa “bir gala ohu”

sekaum penduduk “bir qavmdagi aholi”

sekelompok pekerja “bir guruh ishchilar”

seketumbukan pahlawan “bir gala botirlar”

sekumpulan gagak “bir gala qarg’a”

selonggok durian “bir uyum durian mevasi”

sepasukan-anggota polis “bitta militsiya xodimlari jamoasi”

separa penulis “bir guruh yozuvchilar”

seplatun askar “bir vzvod askar”

---

<sup>20</sup> A. KArimov “Xitoy tilida hisob so’zlar” Toshkent, 2003, bet.51

*setangkai buah rambutan*”bir dasta rambutan mevasi”

*setimbun pakaian* “bir uyum kiyim”

*sepasang kasut* “bir juft tufli”

**O’lchov birligini ko’rsatuvchi so’zlar.** Bunday hisob so’zlarga o’lchov birligini bildiradigan hamma so’zlar kiritiladi. Ushbu xil hisob so’zlarda asli malaycha o’lcham birliklari va o’zlashtirilgan o’lcham birliklari mavjuddir.<sup>21</sup>

*Sekilo nasi* “bir kilogramm guruch”

**Asli malaycha o’lchov birliklari.** Ushbu turdagi hisob so’zlarga an’anaviy malaycha o’lcham birliklarini bildiradigan so’zlar kiritiladi. O’lcham birliklari o’z o’rnida ma’no jihatdan bir necha toifaga bo’linadi:

**Uzunlik o’lchovi.** Biron narsaning uzunligini o’lchash uchun ishlatiladigan o’lcham birliklari, masalan: malaylarning an’anaviy o’lcham birliklaridan hozirgi kunda ham ishlatiladigan *jengkal* – o’zimizning an’anaviy uzunlik o’lchovimiz “qarich”ga yaqin. Shuningdek *depa* “quloch” ma’nosida ishlatiladi. Ikkita cho’zilgan qo’l orasidagi uzunlik (masofa)ni o’lchash uchun ishlatiladi.

Malay an’anaviy uzunlik o’lchovlaridan “*langkah*” ikki qadam orasidagi masofa bilan tengdir. Malay tilidagi uzunlik o’lchovlaridan yana *kaki* oyoq bilan o’lchanadigan uzunlik o’lchoviga kiradi, ya’ni *sekaki* “bir qadam”.

Yuqorida keltirilgan asli malaycha an’anaviy uzunlik o’lchovlaridan zamonaviy malay tilida kam foydalaniladi.

**Sig’im o’lchovlari.** Sig’im-“biron miqdordagi narsani eltish qobiliyati, ichki hajm”.<sup>22</sup> Malay an’anaviy o’lchov birliklarining orasida oziq-ovqat va don-dunlarni tashish, saqlash uchun ishlatib kelingan idishlar sig’im o’lchovi sifatida qabul qilingan, masalan: *bakul*- o’zbek tilidagi savatga to’g’ri keladi. Buning hisob so’zi sifatida ishlatilishiga sabab, bu yaproqlardan yasalgan bo’lib asosan meva

<sup>21</sup> A. KArimov “Xitoy tilida hisob so’zlar” Toshkent, 2003, bet.51

<sup>22</sup> A. KArimov “Xitoy tilida hisob so’zlar” Toshkent, 2003, bet.54

solib tashishga hizmat qiladi. Raga ham savat sifatida ishlatiladi. Raga baliq, meva-sabzavot, keks va shu kabi savatga solinadigan narsalar uchun ishlatiladi. Botol-shisha hisob so'zi ham yog', suv, soya qaylasi, siyoh va shu kabi suyuqliklar saqlanadigan idish sifatida ishlatiladi. Camca- "qoshiq"dan foydalanib o'lchanadigan narsalar, dori, shakar, tuz kabilar bilan ishlatiladi. Cawan- "piyola"ga quyiladigan narsalar uchun ishlatiladi. Qahva, un, bug'doy doni, sut va shu kabilar bilan ishlatiladi. Jambangan- "tuvak"dagi gullar dastasi uchun ishlatiladigan hisob so'z. Kotak- "quti"ga yoki to'rt burchakli idishga joylashadigan buyumlar uchun ishlatiladigan hisob so'z. Mangkuk-bo'tqa, sho'rva, ziravor va shu kabilar solinadigan jom, idish, ya'ni o'zbeklardagi kosaga to'g'ri keladi. Pinggan- "likopcha"ga joylashtiriladigan lag'mon, guruch, keks, qovurilgan baliq, sabzavotli vermishel kabi mahsulotlar uchun ishlatiladi. Piring- hisob so'zi ham likopcha degan ma'noni anglatib, u ham pinggan- hisob so'zidek ishlatilishi mumkin. Senduk-o'zbek tilidagi "cho'mich, yog'log'i(katta cho'mich)" ga to'g'ri kelib qayla, podlivka, sho'rva, shakar, tuz, guruch va shu kabi cho'mich bilan olinadigan narsalar uchun ishlatiladi. Teguk- "qultum, katta yutum" suv, choy, kofe, sut va shu kabi ichimliklar bilan ishlatiladi.

**Og'irlik o'lchovi.** Malayziyada ba'zi meva va sabzavotlar bargdan yasalgan, maxsus o'lchangan savatlarga solib sotiladi. Bakul- "savat". Cekak-Barmoq o'lchamidagi narsalarni o'lchashga ishlatiladi. Bu barmoq bilan yumaloq qilib yig'ib olinadigan uzun palma bargi, sholi, o't, limon o'ti kabilar bilan ishlatiladi. Qadimgi malay xalqi narsalarni aniq o'lchamda emas, balki ularni ma'lum bir idishlarga solib, shu idishlar ular uchun o'girlik o'lchovi vazifasini bajargan. Misol uchun bir savatga 5-6 ta durian mevasi solingan, vaholanki buning og'irligi har doim ham bir xilda bo'lavermagan, albatta ularning katta kichikligiga qarab ma'lum darajada o'zgarib turgan.

**Pul birliklari.** Hozirgi kunda Malayziyada muomalada bo'lgan asli malaycha bo'lgan pul birliklaridan bu Malayziya ringgiti-o'zbeklarning pul birliklaridan so'mga yaqin keladi.

**Vaqt birliklari.** Asli malaycha vaqt o'lchovlari hozirgi kunda ham o'z vazifalarini bajarib kelayapti, masalan pukul-o'zimizning asosiy vaqt birligi "soat"ga to'g'ri keladi. Pukuldan kichikroq vaqt birligi bu suku-pukul ning to'rt dan biriga, yani o'n besh minutga to'g'ri keladi. Bizning vaqt o'lchovlarimizdan "chorak" taga tengdir. Suku dan kichikroq vaqt birligi bu minit-pukul ning oltmishdan biriga tengdir, bizning "daqiqqa"ga tengdir.<sup>23 24</sup>

Yuqorida keltirilgan malaycha o'lchov birliklari deb nomlangan birliklarni biz "Malay tilida 111 hisob so'z" kitobidan oldik.

### **O'zlashtirilgan o'lcham birliklari.**

O'zlashtirilgan o'lchov birligi deb biz o'zga tildan qabul qilingan o'lchov birliklarni yoki tillararo yagona bo'lgan metrik sistemasining o'lchov birliklarini tushunamiz, masalan "metr", "tonna" va shu kabilar. Ushbu o'zlashtirilgan o'lchov birliklarini o'zga til o'lchov birliklaridan farq qilish kerak, chunki o'zlashtirilgan o'lchov birliklarining orasida o'zga til o'lchov birliklari ham bor, masalan, yuqorida keltirilgan misollarimizdan ikkinchisi asli o'zga til o'lchov birligi, aynan ingliz tilidagi og'irlik o'lchovi *tonne*, shu bilan birga u metrik sistemasiga og'irlik o'lchovi sifatida qabul qilingan.<sup>25</sup>

### **Uzunlik o'lchovlari.**

|                       |                  |
|-----------------------|------------------|
| <i>Mikrometer</i>     | "mikrometr"      |
| <i>Santimillimetr</i> | "santimillimetr" |
| <i>Detsimillimetr</i> | "detsimillimetr" |
| <i>Millimeter</i>     | "millimetr"      |

---

<sup>23</sup> Malay tilida 111 hisob so'z.

<sup>24</sup> Malayziyskiy yozik, Darafeeva T. V, Kukushkina E.S, Moskva, 2006, bet.98

<sup>25</sup> A. KArimov "Xitoy tilida hisob so'zlar" Toshkent, 2003, bet.54

|                   |             |
|-------------------|-------------|
| <i>Santimeter</i> | “santimetr” |
| <i>Decimeter</i>  | “detsimetr” |
| <i>Meter</i>      | “metr”      |
| <i>Decameter</i>  | “dekametr”  |
| <i>Gekometr</i>   | “gekometr”  |
| <i>Kilometer</i>  | “kilometr”  |

### **Sath o'lchovlari.**

|                          |                     |
|--------------------------|---------------------|
| <i>Sentimetr persegi</i> | “kvadrat santimetr” |
| <i>Persegi decimeter</i> | “kvadrat detsimetr” |
| <i>Meter persegi</i>     | “kvadrat metr”      |
| <i>Hektar</i>            | “gektar”            |

### **Hajm o'lchovlari.**

|                        |                 |
|------------------------|-----------------|
| <i>Santimeter padu</i> | “kub santimetr” |
| <i>Decimeter</i>       | “detsimetr”     |
| <i>Meter padu</i>      | “kub metr”      |

### **Sig'im o'lchovlari.**

|                   |             |
|-------------------|-------------|
| <i>Milliliter</i> | “millilitr” |
| <i>Centiliter</i> | “santilitr” |
| <i>Deciliter</i>  | “detsilitr” |
| <i>Liter</i>      | “litr”      |
| <i>Decalitre</i>  | “dekalitr”  |
| <i>Gekolitr</i>   | “gekolitr”  |
| <i>Kiloliter</i>  | “kilolitr”  |

### **Og'irlik o'lchovlari.<sup>26</sup>**

|                 |              |
|-----------------|--------------|
| <i>Miligram</i> | “milligramm” |
|-----------------|--------------|

---

<sup>26</sup> A. KArimov “Xitoy tilida hisob so'zlar” Toshkent, 2003, bet.54

|                   |              |
|-------------------|--------------|
| <i>Santigram</i>  | “santigramm” |
| <i>Decigram</i>   | “detsigramm” |
| <i>Gram</i>       | “gramm”      |
| <i>Dekagram</i>   | “dekagramm”  |
| <i>Hectogram</i>  | “gektogramm” |
| <i>Kilo(gram)</i> | “kilogramm”  |
| <i>Quintal</i>    | “kvintal”    |
| <i>Ratus</i>      | “sentner”    |
| <i>Tan</i>        | “tonna”      |

O’zlashtirilgan o’lchov birliklari Malayziyada keng ravishda ishlatiladi, masalan ichki bozorda kilogramm, metr va shunga o’xshash o’lchovlar qo’llanishi ko’paymoqda, qolganlari esa fan va texnika sohasida o’z o’rnini topgan.

**Mavhum hisob so’zlar.** Malay tilida bir qancha otlar hisob so’zlarsiz bevosita sonlar bilan birga qo’llanishi mumkin, odatda bu hodisa mavhum otlar bilan yuz beradi. Sababi shundaki, bir qator mavhum otlar sonlar bilan kelganda shu otlarning grammatik vazifalari mos tushadi, ya’ni hisob so’zlarning vazifalarini bajaradilar. Bunday otlarni biz “assotsiativ hisob so’zlar” atamasi bilan tarjima qilamiz. Lekin bu otlar mavhum otlar deb ta’kidlab ko’rsatilmagan. Mavhum hisob so’zlarga misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: *tahun* “yil”, *minggu* “hafta”, *hari* “kun”, *vaktu* “vaqt”, *negara* “davlat”, *Bandar* “shahar” va shu kabilar. Keltirilgan otlarning sonlar bilan kelgan misollarini ko’rib chiqamiz: tiga *tahun* “uch yil”, empat *hari* “to’rt kun”, dua *Negara* “ikkita davlat”, empat *Bandar* “to’rtta shahar”.

Sonlar va mavhum hisob so’zlarning orasiga, odatda, boshqa hisob so’zlar qo’yilmaydi, masalan: empat *buah* *hari*, dua *buah* *tahun* deb bo’lmaydi, noto’g’ri bo’ladi. Biroq *Negara*, *Bandar* so’zlari oldida buah hisob so’zini ishlatish mumkin, masalan:

Dua *buah* *Bandar* “ikki shahar”

### **Muvaqqat hisob so'zlar**

Bir guruh otlar asosan qurol-aslaha, asbob-uskunalarining nomi yoki fe'llarga xos hisob so'zlar bilan birgalikda odam yoki narsalarning miqdorini ifodalaydilar. Bunday hisob so'zlarni muvaqqat hisob so'zlar deymiz. Muvaqqat nom hisob so'zlarini ikki kichik guruhga bo'lamiz, bu: otlardan kelib chiqqan hisob so'zlar va fe'llardan kelib chiqqan hisob so'zlar.<sup>27</sup>

### **Hisob so'zlar o'rnida ishlatiladigan otlar, masalan:**

|                                 |                                     |
|---------------------------------|-------------------------------------|
| <i>Sebakul durian</i>           | “bir savat duriyan mevasi”          |
| <i>Sebotol susu</i>             | “bir shisha sut”                    |
| <i>Secamca gula</i>             | “bir qoshiq shakar”                 |
| <i>Secawan teh</i>              | “bir stakan choy”                   |
| <i>Segelas air buah</i>         | “bir stakan sharbat”                |
| <i>Sehidangan nasi bariyani</i> | “bir dasturxon ovqat”               |
| <i>Sejambangan bunga</i>        | “bir tuvak (vaza) gul”              |
| <i>Sekotak rokok</i>            | “bir korobka sigaret”               |
| <i>Semangkuk bubur</i>          | “bir kosa bo'tqa”                   |
| <i>Sepiring mi</i>              | “bir likopcha lag'mon”              |
| <i>Seraga buah-buahan</i>       | “bir savat mevalar”                 |
| <i>Sesenduk nasi</i>            | “bir cho'mich guruch”               |
| <i>Sekaki pergi</i>             | “bir qadam tashlamoq” <sup>28</sup> |

### **Hisob so'zlar o'rnida ishlatiladigan fe'llar. Masalan:**

*Carik* asli ma'nosi “kesmoq, yirtmoq”-hisob so'z sifatida kelganda, ma'nosi “qiyqim, bo'lak, parcha”:  
*Secarik kain* “bir qiyqim mato”

<sup>27</sup> A. KArimov “Xitoy tilida hisob so'zlar” Toshkent, 2003, bet.59

<sup>28</sup> Bahasa Othman “111 Penjodoh bilangan” Malaysiya, 2005 bet. 4-8

Secarik kertas “bir parcha qog’oz”

Cekak asli ma’nosi “ikki qo’l bilan ushlamoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “hovuch”:

Secekak sawah “bir hovuch sholi”

Cubit asli ma’nosi “chimchilamoq, ikki yuza orasini siqmoq, bosmoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “chimdim”:

Secubit roti “bir chimdim non”

Cucuk asli ma’nosi “sanchmoq, kirgizmoq, to’g’namoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “sanchqi”

Secucuk sate “bir sanchqi sate”(shashlik)

Depa asli ma’nosi “biror narsani o’lchamoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “quloch”:

Sedepa tali “bir quloch arqon”

Deret asli ma’nosi “bir chiziqqa tortmoq, bir chiziqqa tizmoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “chiziq, qator, saf”:

Sederet tiang elektrik “bir qator simyog’och”

Gelung asli ma’nosi “o’ramoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “o’ram”:

Segelung dawai “bir o’ram sim”

Genggam asli ma’nosi “ushlamoq, changallamoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “siqim”:

Segenggam paku “bir siqim mix”

Gulung asli ma’nosi “o’ramoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “o’ram, bog”:

Segulung tali “bir o’ram arqon”

Hidang asli ma’nosi “taqdim qilmoq, hizmat ko’rsatmoq”-hisob so’z sifatida kelganda, ma’nosi “dasturxon”:

Sehidang nasi beriani “bir dasturxon ovqat”

Hiris asli ma’nosi “mayda bo’laklarga bo’lmoq, burdalamoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “bo’lak, burda, qism”:

Sehiris tomato “bir bo’lak pomidor”

Ikat asli ma’nosi “birlashtirmoq, bog’lamoq, o’ramoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “o’ram, uyum, bog’lam, tutam”:

Seikat kayu api “bir uyum o’tin”

Jemput asli ma’nosi “taklif qilmoq, qabul qilmoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “chimdim”, yani barmoq bilan olinadigan narsalar uchun ishlatiladi:

Sejemput rempah “bir chimdim ziravor”

Karangan asli ma’nosi “tuzmoq, yaratmoq, tartibga solmoq, ijod qilmoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “shoda, tizim”:

Sekarangan bunga “gullar shodasi”

Kelompok asli ma’nosi “guruhlarga ajratmoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “guruh”:

Sekelompok pekerja “bir guruh ishchilar”

Kerat asli ma’nosi “kesmoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “bo’lak, tilim”:

Sekerat tebu “bir bo’lak qamish”

Kumpulan asli ma’nosi “yig’moq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “guruh, gala”:

Sekumpulan gagak “bir gala qarg’a”

Labuh asli ma’nosi “langar tashlamoq, kemani to’xtatmoq”-hisob so’z sifatida kelganida, biro narsaga ilinib, osilib turadigan narsalar uchun ishlatiladi, donabay hisob so’z:

Selabuh tirai “bitta parda”

Langkah asli ma’nosi “qadam qo’ymoq, qadam tashlamoq”-hisob so’z sifatida kelganida, ma’nosi “qadam”:

Selangkah berjalan “ikki qadam tashlamoq”

Laras asli ma’nosi “mo’ljalga olmoq”-hisob so’z sifatida kelganida, qurollar bilan ishlatiladigan donabay hisob so’z:

Selaras pistol “bitta pistolet”

Lingkar asli ma'nosi "o'ramoq, arqon bilan boylamoq"-hisob so'z sifatida kelganida, o'raladigan narsalar uchun ishlatiladigan donabay hisob so'zi:

Selingkar tali "bitta arqon"

Longgok asli ma'nosi "yig'moq, tahlamoq"-hisob so'z sifatida kelganida, ma'nosi "uyum, yig'im":

Selonggok durian "bir uyum durian mevasi"

Pasang asli ma'nosi "yoqmoq, kiymoq, mustahkamlamoq, bog'lamoq"-hisob so'z sifatida kelganda, ma'nosi "juft, to'plam":

Sepasang kasut "bir juft tufli"

Patah asli ma'nosi "quvg'in qilmoq"-hisob so'z sifatida kelganda, so'zlar bilan ishlatiladigan donabay hisob so'z:

Sepatah perkataan "bitta so'z"

Penggal asli ma'nosi "kesmoq"-hisob so'z sifatida kelganda, ma'nosi "muddat, fursat":

Sepenggal "bir muddat"

Potong asli ma'nosi "kesmoq"-hisob so'z sifatida kelganda, ma'nosi "bo'lak, qism":

Sepotong daging "bir bo'lak go'sht"

Senduk asli ma'nosi "suzib olmoq"-hisob so'z sifatida kelganda, ma'nosi "cho'mich, yog'log'i":

Sesenduk nasi "bir cho'mich guruch"

Sikat asli ma'nosi "yig'moq"-hisob so'z sifatida kelganda, ma'nosi "dasta, bosh, tutam":

Sesikat pisang "bir dasta banan"

Suap asli ma'nosi "qo'l bilan yemoq, ovqatlantirmoq"-hisob so'z ma'nosida kelganda "qo'l":

Sesuap nasi goreng "bir osham qovurilgan guruch"<sup>29</sup>

### **Harakat hisob so'zlari.**

---

<sup>29</sup> Bahasa Othman "111 Penjodoh bilangan" Malaysiya, 2005, bet. 5-47

Ish-harakatning hisoblash birligini bildiradigan hisob so'zlar harakat hisob so'zlar deb ataladi. Harakat hisob so'zlari ham ikki turga: maxsus harakat hisob so'zlari va muvaqqat harakat hisob so'zlariga bo'linadi.<sup>30</sup>

### **Maxsus harakat hisob so'zlari**

Maxsus harakat hisob so'zlari ikki kichik guruhga bo'linadi, bu: yakka harakat hisob soz'lari va yig'ma harakat hisob so'zlari.<sup>31</sup>

**Yakka harakat hisob so'zlari.** Hozirgi malay tilida yakka harakat hisob so'zlarining miqdori ko'p emas. Odatda ko'proq uchraydiganlarini misol tariqasida keltiramiz va izoh berishga harakat qilamiz.

Kali – harakatning necha marta sodir bo'lganligini bildiradi, odatda, harakat ko'p marotaba yuz berganini ifodalash uchun ishlatiladi.

Masalan: *Saya membaca buku ini tiga kali.*

“Men bu kitobni uch marta o'qidim”.

*Kita menonton filem ini dua kali.*

“Biz bu filmni ikki marta ko'rdik”

Ko'pincha, hozirgi malay tilida harakat hisob soz'lari sonlar bilan miqdoriy birikmani hosil qilib harakatga nisbatan keyingi o'rinda turadi. Ammo *kali* nafaqat harakatga nisbatan keyingi pozitsiyada turadi, balki oldingi o'rinni ham egallashi mumkin, masalan:

*Beberapa kali saya cuba menterjemahkan teks ini.*

“Bir necha marta men bu teksni tarjima qilishga harakat qildim”.

Agarda harakatni ifodalovchi so'zdan keyin to'ldiruvchi bo'lsa, unda miqdoriy birikma to'ldiruvchidan keyin ham, to'ldiruvchidan oldin ham qo'yilishi mumkin, masalan:

*Setiap minggu sekali saya pergi ke kampung.*

Har haftada bir marta qishloqqa boraman.

*Setiap minggu saya pergi ke kampung sekali.*

Har haftada qishloqqa bir marta boraman.

---

<sup>30</sup> A. Karimov “Xitoy tilida hisob so'zlar” Toshkent, 2003. bet.61

<sup>31</sup> A. Karimov “Xitoy tilida hisob so'zlar” Toshkent, 2003. bet.61

Faqat to'ldiruvchi vazifasini kishilik olmoshlari bajargandagina, miqdoriy birikma to'ldiruvchidan keyin turishi mumkin.

Masalan:

*Saya melihat dia sekali.*

“Men uni bir marta ko'rdim”.

### **Muvaqqat harakat hisob so'zlari**

Qurol-aslaha, tan-a'zolari va qo'l-oyoqlar bilan bajariladigan harakatlar hamda shu buyumlarni anglatadigan otlarni muvaqqat hisob so'zlari sifatida olib ishlatish mumkin.

Muvaqqat harakat hisob so'zlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: qurol-aslaha va tan a'zolarini bildiradigan muvaqqat harakat hisob so'zlar va vaqt so'zlari bilan ifodalangan muvaqqat harakat hisob so'zlari.<sup>32</sup>

**Birinchi guruh harakat hisob so'zlari.** Ish harakatni sodir qilishda tayanadigan qurollar va odam tanasining to'rt a'zolarini bildiradigan otlar harakat hisob so'zlari qatorida ishlatiladi, masalan:

*Pergi sekali* “bir marta bormoq”

*Cucuk sebilah jarum* “bitta sanchmoq”

**Ikkinchi guruh harakat hisob so'zlari.** Vaqtni bildiradigan otlarni harakat hisob so'zlari o'rnida ishlatish mumkin, masalan:

*Tahun; dibaca setahun* “bir yil o'qildi”.

*Bulan; dicipta dua bulan* “ikki oy ishlab chiqildi”

*Hari; dibetulkan sembilang hari* “to'qqiz kun tuzatildi”.

*Jam; dicakap empat jam* “to'rt soat gapirildi”

*Minit; ditunggu sepuluh minit* “o'n minut kutildi”<sup>33</sup>

Yuqoridagi tasnifni tuzishda malayshunoslikdagi mavjud ma'lumotlardan foydalandik va ijodiy yondashishga harakat qildik. Natijada o'ziga xos va yangi tasnif vujudga keldi, lekin ushbu tasnifni malay hisob so'zlarining mukammal leksik-semantik tasnifi deb bilmaymiz, chunki kamchiliklardan holi emasdir. Shu

<sup>32</sup> A. Karimov “Xitoy tilida hisob so'zlar” Toshkent, 2003. bet.69

<sup>33</sup> “Учебник малайского (малайзийского) языка”. Дарафеева Т.В., Кукушкина Е. С. 2006 год. Bet. 97-98

bilan birga, bizning tasnifimizni o'ziga xosligini namoyon qilish uchun, uning sxematik ko'rinishini keltiramiz.

## 2.2 Struktural tahlil

### Hisob so'zlarning tuzilish xususiyatlari

Hozirgi zamon malay tilining hisob so'zlarini tuzilish jihatdan ikki xilga ajratish mumkin, bular: soda va qo'shma hisob so'zlardir.

#### Sodda hisob so'zlar

Yuqorida aytib o'tganimizdek, malay tilidagi hisob so'zlarining kam qismi bir bo'g'inli so'zlarga mansubdir. Sodda hisob so'zlarning ham asosiy qismini bir bo'g'inli hisob so'zlar tashkil qiladi. Misol: das-qurollar bilan ishlatiladigan hisob so'z, orang-odamlar uchun ishlatiladigan hisob so'z, armada-flot, kemalar uchun hisob so'z, bakul-savatdagi mevalar uchun hisob so'z, baris-qator qilib tizilgan narsalar uchun hisob so'z, batang-uzun narsalar uchun hisob so'z va shu kabilar.

#### Qo'shma hisob so'zlar

Ikki sodda yoki undan ortiq hisob so'zlardan tuzilgan va natijada biron-bir murakkab birlikni ifodalovchi so'zlar qo'shma so'zlar deb ataladi.<sup>34</sup> Misol:

Gerombolan-guruh, olomon uchun hisob so'z, jambangan-gullar dastasi uchun hisob so'z, karangan-gullar uchun hisob so'z, kelompok-guruhlab sanaladigan odamlar uchun hisob so'z, ketumbukan-ma'lum sohadagi odamlar uchun hisob so'z, kumpulan-odam va hayvonlar uchun hisob so'z, persalinan-kiyimlar uchun hisob so'z va shu kabilar.

## 2.3 FUNKSIYASI

### Hisob so'zlarining qo'llanishi va miqdoriy birikmalarining grammatik funksiyalari

Malay tilida ko'p so'zlar, shu jumladan hisob so'zlar gapda egallagan o'rniga qarab nafaqat grammatik funksiyasini, balki leksik ma'nosini qisman yoki to'liq ravishda ham o'zgartiradi. Shuning uchun ushbu bo'limda biz hisob

<sup>34</sup> A. Karimov "Xitoy tilida hisob so'zlar" Toshkent, 2003. bet.72

so'zlarning gapdagi grammatik funksiyalarini ko'rib chiqishni maqsad qildik. Bundan tashqari hisob so'zlarining qo'llanish jarayoni ham o'ziga xos, ya'ni umumiy qoydalardan mustasno ravishda ishlatiladigan hisob so'zlar va vaziyatlar mavjuddir, ularni qisqacha bo'lsada ko'rsatib o'tish lozimdir.

Hisob so'zlar, odatda, mustaqil ravishda gap bo'laklari bo'la olmaydilar. Lekin gohida hisob so'zlar aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin, buning uchun maxsus vaziyat tug'ilishi lozim.<sup>35</sup> Hisob so'zlari oldida aslida – *satu* “bir” soni bo'lib, hisob so'zi fe'l-kesimdan keyin joylashib, shu bilan birga to'ldiruvchidan oldin tursa hisob so'zi mustaqil ravishda aniqlovshi vazifasini bajaradi, masalan:

*Dia ada seorang kakak yang belajar di Institut.*

“Uning Institutta o'qiydigan opasi bor.”

*Dia membeli sebuah mangga di pasar.*

“U bozordan mango sotib oldi”.

Son va hisob so'zlar ko'p hollarda birgalikda qo'llanadi. Malay tilida sonlarning yolg'iz ishlatilishi kam uchraydigan holdir. Ular ko'proq gapning markazi va asosiy mazmuni bo'lib kelganda (ega vazifasida) mustaqil ravishda gap bo'lagi bo'la olishi mumkin, masalan:

*Tujuh hari ialah satu minggu.*

“Yeti kun bir xaftaga tengdir”

Sonlar gohida kesim vazifasida kelishi mumkin, bunday paytlarda ular koeffisient yoki razryad (xona) ko'rsatkichlari bilan kelgan bo'ladi, ya'ni o'n ikki, ikki yuz va shu kabilar. Masalan:

*Seorang perempuan ini berumur tiga puluh.*

“Bu ayolning yoshi o'ttizda”.

Hisob so'zlar va sonlarning birikishidan miqdoriy birikmalar tashkil topadi.<sup>36</sup>

*Dua buah almari*                      “ikkita shkaf”

*Tiga orang pelajar*                    “uchta talaba”

---

<sup>35</sup> A. Karimov “Xitoy tilida hisob so'zlar” Toshkent, 2003. bet.72

<sup>36</sup> Miqdoriy birikma-“ikki so'zning birlashib bir grammatik funksiyani bajarishidir.”

Biz son va hisob so'zi gapda yonma-yon kelib bitta grammatik vazifasini bajarganligi sababli ularni miqdoriy birikma deb bilamiz.<sup>37</sup>

Bundan tashqari, *Segala* (birga), *semua* (hamma), *seluruh* (butun), *sedikit* (kam) kabi miqdor ravishlar kelganda so'z birikmasi tarkibidagi hisob so'z tushirib qoldiriladi: *semua* (*orang*) mahasiswa; *sedikit* (*piring*) nasi putih va hokazo.

Biroq "bir necha" ma'nosidagi beberapa so'zidan keyin hech o'zgarishsiz qo'llanilaveriladi: beberapa orang pelajar (bir nechta o'quvchilar); beberapa ekor anak kucing (bir nechta mushukchalar).

Hisob so'zlaridan oldin miqdor son birni anglatga, u holda malay tilida satu (bir):

*Satu buah rumah = sebuah rumah;*

*Satu pucuk surat = sepucuk surat.*<sup>38</sup>

### **Nom hisob so'zlaridan tuzilgan miqdoriy birikmalarning funksiyalari**

1. Nom hisob so'zlaridan tuzilgan miqdoriy birikmalarning asosiy grammatik funksiyasi bu aniqlovchi vazifasini bajarish, masalan:

*Dia bercerita kepada saya sebuah cerita.*

"U menga bitta hikoya aytib berdi".

Miqdoriy birikmalar orasiga, odatda, boshqa so'z yoki birikmalar kiritib bo'lmaydi, masalan:

*Seorang cantik perempuan* "bitta chiroyli ayol".

*Sebiji manis epal* "bitta shirin olma".

Ushbu misollardagi *cantik* "chiroyli" va *manis* "shirin" so'zlarini miqdoriy birikmaning orasiga kiritib bo'lmaydi.

Aslida esa miqdoriy birikma ajralishga moyil emas.

2. Ega va to'ldiruvchi vazifasida. Agarda miqdoriy birikmalar aniqlaydigan ot gapning birinchi bo'lagida aytib o'tilgan bo'lsa, unda gapning ikkinchi bo'lagida shu otga tegishli miqdoriy birikmalar yol'g'iz o'zlari aniqlanmishsiz kelishi

<sup>37</sup> A. Karimov "Xitoy tilida hisob so'zlar" Toshkent, 2003. bet.80

<sup>38</sup> Malco M. Mitz. W. "A course in conversational Indonesia", Pan Pacific Publishing., bet. 5

mumkin. Natijada miqdoriy birikma ega yoki to'ldiruvchi vazifalarini bajaradi, masalan:

*Saya membeli dua kilo epal, satu kilo ialah epal biru, satu kilo ialah epal merah.*

Ushbu misolda satu kilo “bir kilogramm” miqdoriy birikmasi ega vazifasida kelgan.

*Semalam kita membeli tiga batang pen di kedai, saya membeli dua batang pen, Sardi membeli sebatang pen.*

“Kecha biz do'kondan uchta ruchka sotib oldik, men ikkita sotib oldim, Sardi bitta sotib oldi”.

Gapdagi dua batang “ikkita” va sebatang “bitta” miqdoriy birikmalari to'ldiruvchi vazifalarida kelgan.

3. Kesim vazifasida miqdoriy birikmalar ko'proq yosh va sanalarni ifodalaganda keladi, masalan:

*Adik saya mencapai tujuh belas tahun ini.*

“Ukam bu yil o'n yettiga to'ldi”.

*Esok ialah lima belas hari bulan.*

“Erta o'n beshinchi”.

*Sekarang saya memberi kepada setiap orang dua batang pensel.*

“Hozir men har bir odamga ikkitadan qalam beraman”.

4. Tartib sonlardan tuzilgan miqdoriy birikmalar gapda hol vazifasida kelishi mumkin,<sup>39</sup> masalan:

*Saya kesatu kali pergi ke pasar tanpa wang.*

“Men birinchi marta bozorga pulsiz chiqdim”

*Tahun ini kita ketiga kali pergi ke Malaysiya.*

“Bu yil bizlar uchinchi marta Malayziyaga borishimiz”.

## **Harakat so'zlaridan tuzilgan miqdoriy birikmalarning grammatik funksiyalari**

1. Harakat miqdorini bildiruvchi hol, masalan:

---

<sup>39</sup> A. Karimov “Xitoy tilida hisob so'zlar” Toshkent, 2003. bet.87

*Saya menutup pintu rumah dua kali.*

“Men uy eshigini ikki marta yopdim”.

## **2.4 Buah hisob so’zi haqida**

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, hozirgi zamon malay tili hisob so’zlarining ichida eng ko’p uchraydigani bu-donabay so’zlariga mansub bo’lgan buah hisob so’zidir.

### **Buah hisob so’zining qo’llanishi.**

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, hozirgi zamon malay tilida buah hisob so’zi eng ko’p uchraydiganidir. Bu holat nafaqat so’zlashuv, balki adabiy tilga ham xosdir. Hisob so’zlarning tasnifida u donabay hisob so’zlarning tarkibidan o’rin olgan. Biroq bu uning ko’pqirralik qo’llanishidagi bir jihati xolos.

Buah so’zi ma’noga ega so’zdir. Uning asl ma’nosi malay tilida “meva” dir. Hozirgi malay tilida buah hisob so’zi deyarli hamma donabay hisob so’zlarining o’rnida ishlatilishi mumkin.

Buah hisob so’zini yordamchi so’z emas, balki ma’noga ega bo’lgan so’zlarga qo’shamiz. Biroq til hodisalari buah hisob so’ziga nisbatan bu masalani alohida ko’rilishini talab qiladi. Chunki buah ning qo’llanishi shunchaki keng va ko’p qirraliki, uni faqat yuqorida yozganlarimizga asoslanib, tahlilsiz ma’noli so’zlarga qo’shib qo’yish to’g’ri bo’lmaydi.

Fonetik jihatdan buah so’zi odatdagi enklitikadir, yani u har doim o’zidan oldin turgan so’zga tutashib turadi. Grammatik jihatdan esa buah so’zi har doim o’zidan keyin turgan so’zga yoki birikmaga aloqador bo’ladi: u shuni ko’rsatadiki, so’z qaysi leksik grammatik toifaga mansub bo’lishidan qat’iy nazar, ushbu vaziyatda u otlashgan ma’nosida tushuniladi. Ya’ni qaysi so’z turkumiga mansub bo’lishidan qat’iy nazar ushbu vaziyatda, aynan buah dan keyin turganligi uchun, shu so’z otga mansub bo’lgan so’zlarning vazifasini bajarayotganini va buyum-narsa ma’nolarini anglatayotganligini ko’rsatadi. Bu buah so’zining asosiy vazifasidir.

Buah donabay hisob so'zi deb tan olinib, odatda mahsus hisob so'zlarini o'ziga talab qiluvchi buyum-narsalarga nisbatan ishlatilmasligi ta'kidlanadi.

Shuningdek *buah* hisob so'zi katta, aniq shaklga ega bo'lmagan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Misol:

Sebuah almari      “bitta shkaf”

Sebuah ambulans      “bitta tezyordam mashinasi”

Sebuah asrama      “bitta yotoqxona”

Sebuah bakul      “bitta chelak”

Sebuah Bandar      “bitta shahar”

Sebuah bangku      “bitta skameyka”

Sebuah bank      “bitta bank”

Sebuah basikal      “bitta velosiped”

Sebuah beca      “bitta velo-arava”

Sebuah beg      “bitta sumka”

Sebuah berita      “bitta yangilik”

Sebuah bilik      “bitta xona”

Sebuah bukit      “bitta qoya”

Sebuah buku      “bitta kitob”

Sebuah dapur      “bitta oshxona”

Sebuah epal      “bitta olma”

Sebuah filem      “bitta film”

Sebuah gua      “bitta tog”

Sebuah helikopter      “bitta vertalyot”

Sebuah hospital      “bitta kasalxona”

Sebuah jambatan      “bitta ko'prik”

Sebuah kantin      “bitta oshxona”

Yuqorida keltirilgan misollarni tahlil qilgandan so'ng quyidagi xulosalarga keldik:

- asosiy va keng ravishda, hozirgi malay tilida buah nom hisob so'z sifatida donabay hisob so'zlari vazifasini bajaradi;

- yordamchi so'zlarga o'xshash tarafi ko'p bo'lishiga qaramasdan, biz buah ni yordamchi so'z yoki donalik affiksi deb atamadik, chunki buah ko'proq donabay hisob so'zi sifatida ishlatiladi va shu vazifada boshqa hisob so'zlaridan deyarli farq qilmaydi. Bizning o'ylashimizcha buah ni hisob so'zi deb atashimiz ilmiy-nazariy va amaliy-o'quv ishlar uchun ham juda qulaydir.

### III BOB. HISOB SO'ZLARINING QO'LLANISHIGA KO'RA TURLARI.

#### 3.1 Hisob so'zlarining gapda ishlatilishi.

##### **Predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlar**

**BUAH-** Meva. Katta narsalar va hisob so'z shart bo'lmagan narsalar uchun ishlatiladi. Transport, uy, xona, davlat, mebel va shu kabi aniq shaklga ega bo'lmagan katta narsalar uchun ishlatiladi.

Musalmaning uyi yonida velosiped va motosikl bor.

*Di bawah rumah Musalmah ada sebuah basikal dan **sebuah** motosikal.*

##### **Butunning, guruhning yoki to'daning qismini ifodalash uchun ishlatiladigan hisob so'zlar**

**BUKU-** Tugun, o'ram, parcha, bo'lak. Parchali, bo'lakli narsalar uchun. Sovun, non, g'altak, yigirilgan ip kabi bo'lakli harsalar uchun ishlatiladi.

Oyim nonushtaga bir stakan sut bilan bir bo'lak shokoladli non tayyorladi.

*Emak menyediakan segelas air milo bersama **sebuku** roti berintikan coklat sebagai sarapan pagi.*

**CARIK-** Bo'lak, qism. Bo'laklangan ushoq, bo'laklarga ishlatiladi. Yaproq, mato, qiyqim, qoldiq, qog'oz va shu kabi cho'zilib, yirtiladigan narsalar uchun ishlatiladi.

Oyim ukamning barmog'idagi yarani bir qiyqim mato bilan bog'lab qo'ydi.

*Ibu membalut luka dijari adik dengan **secarik** kain.*

**CEBIS-** Qism, bo'lak, parcha, burda.

Kesilgan narsa, parcha, bo'lak, siniq, parcha uchun. Mato, qog'oz, paxta, barg va shu kabi kichik, yirtiladigan narsalarni hisoblash uchun ishlatiladi.

Ah Meng tikkan qurama yostiq o'nlab parchalarning aralashuvidan hosil bo'lgan.

*Sarung bantal yang beraneka warna itu adalah hasil cantuman berpuluh-puluh **cebisan** kain yang dijahit oleh Ah Meng.*

**CUBIT-** Ikkita yuza orasidagi torlik, zichlik, chimchilab olish.(chimdim). Ozgina, kam. Shakar, tuz, go'sht, baliq, non va shu kabi barmoqdan foydalaniladigan kam sonli narsalar bilan ishlatiladi.

Ranjit kasal buvisining og'ziga bir chimdim non soldi.

*Ranjit menyuap **secubit** roti ke mulut neneknya yang sedang sakit.*

**GENGGAM**- Ushlamoq, changallamoq. Qo'l bilan ushlanadigan narsalar uchun. Guruch, qum, yer, shakar, sholi va shu kabi qo'l bilan changallanadigan, ushlanadigan kichkina hajmli narsalar uchun ishlatiladi.

Bir siqim kukun bilan bir siqim mixning og'irligi bir xil emas.

**Segenggam** *tepung tidak sama beratnya dengan segenggam paku.*

**GUGUS**- Bog'lam, bir bosh, tutam, tugun. Rambutan, uzum kalit, yulduz, orol, rambay va shu kabi ushlanadigan va yig'iladigan narsalar uchun ishlatiladi.

Og'irligi 2 kg bo'lgan besh bog'lam langsung mevasining narxi 5 ringit.

*Lima **gugus** buah langsung yang beratnya dua kilogram itu berharga RM 5.00.*

**HIRIS**- Bo'lak, qism, parcha, burda, kesik. Yupqa kesik. Bodring, pomidor, piyoz, go'sht, kartoshka, rediska kabi yumshoq narsalardagi yupqa bo'lak burdalar uchun ishlatiladi.

Bir nechta pomidor bo'laklari qovurilgan lag'mon ustiga qo'yildi.

*Beberapa **hiris** tomato diletakkan di atas mi goreng itu.*

**JEMPUT**- Chimdim, taklif qilmoq, qabul qilmoq, chaqirmoq. Barmoq bilan olinadigan narsalar uchun. Shakar, tuz, ziravor va shu kabi barmoq bilan bo'linadigan narsalar uchun ishlatiladi.

Oyim sho'rvaga ovqatning mazasini oshirish uchun bir chimdim ziravor soldi.

*Ibu membubuh **sejemput** rempah ke dalam sup itu untuk menambahkan kelazatan masakan tersebut.*

**KEPAL**- Ushoq, parcha, hovuch, bo'lak, guvala, mushtum. Guruch, yer, tosh va shu kabi qo'l bilan siqim qilingandan keyin uvala qilingan narsalar uchun ishlatiladi.

Amina kastyuldan bir hovuch guruch olib bolasining likopchasiga soldi.

*Aminah mengambil **sekepal** nasi dari dalam periuk lalu dibubuh ke dalam pinggan anaknya.*

**KETUL**- Qism, parcha, bo'lak. Tosh, go'sh, suyak va shu kabi iskanjanadigan, changallanadigan (ushlanadigan) va bo'lakli narsalar uchun ishlatiladi.

Kuchuk axlat bochkasidan olingan bir bo'lak suyakni changalladi (tishladi).

*Anjing itu menggonggong **seketul** tulang yang di ambilnya dari tong sampah.*

**PAPAN**- Taxta, qism, bo'lak. Mushak va achchiq ta'mli, yesa bo'ladigan loviya kabi bo'lakli narsalar uchun ishlatiladi.

"1960 yillarda bir mushakning narxi atiga 30 sen edi" dedi Janob Akob nevarasiga.

*"Pada tahun 1960an, harga **sepapan** mercun hanya tiga puluh sen sahaja," kata Pak Akob kepada cucunya.*

**PENG GAL**- Paragraf, bo'lak, qism, muddat, fursat. Hikoya, dam olish vaqti va shu kabi qismlarga ajratiladigan narsalar uchun ishlatiladi.

Sivaning ish shartnomasi ish beruvchi tomonidan bir muddatga uzaytirildi.

*Kontrak kerja Siva disambung **sepenggal** lagi oleh majikannya.*

**PETAK**- Kupe, bo'lim, bo'lma, katak. Dala, yer, sholizor va shu kabi ajratiladigan, tekis va keng hududlar uchun ishlatiladi.

Bu shkafning hamma bo'lmasiga kiyimlar joylashtirilgan.

*Setiap **petak** di dalam almari itu sudah diisi dengan pakaian.*

**SUAP**- ovqat bermoq, boqmoq. Yeyiladigan va taklif qilinadigan hamma narsa. Guruch va to'yimli guruch kabi ushlab og'izga solib qo'yiladigan ovqat uchun ishlatiladi.

Fahmi bir necha osham qovurilgan guruch va bir stakan sut bilan og'iz ochdi.

*Fahmi berbuka puasa dengan beberapa **suap** nasi goreng dan segelas air susu.*

**To'dalab, guruhlab ko'rsatuvchi hisob so'zlar.**

**ANGKATAN**- Omma, olamon, to'da, gala, guruh. Yuniforma kiyuvchilar. Ilm-ahli, yozuvchilar, yoshlar, harbiylar, kema va shu kabi odamlar yoki narsalar guruhi bilan ishlatiladi.

Achehga bir guruh Malayziya harbiylari sunami qurbonlarini qutqarish uchun etib keldi.

**Seangkatan** tentera Malaysia antara kumpulan yang paling awal sampai di Acheh untuk membantu mangsa tsunami.

**ARMADA**- Flot(ma'lum sohaga yoki joyga oid kemalar majmuyi) Harbiy yoki savdo kemalari uchun ishlatiladi.

”Sayohat davomida, men okeandagi bir flot katta dengiz kemalarini ko’rdim” dedi kema hizmatchisi Amin.

*"Ketlka belayar, abang melihat **searmada** kapal-kapal laut yang besar-besar di lautan," cerita abang Amin, seorang kelasi kapal.*

**BERKAS-** Bog’, bog’lam, tutam, tugun, dasta, bir bosh. Safga tortilgan va tizilgan narsalar, o’tin, bambuk, qalam, palma bargi qovurg’asi, qamish kabi bog’lanadigan, tugun qilinadigan narsalar bilan ishlatiladi.

Yusuf uy tomorqasidagi o’rmonchadan bir bog’ o’tin orqalab keldi.

*Yusuf memikul **seberkas** kayu dari arah belukar di belakang rumahnya.*

**GEROMBOLAN-** Guruh, to’da. Jinoyatchi, qo’zg’olonchi, terrorist, bosqinchi, yo’l to’sar, dengiz qaroqchisi kabi odamlar guruhi uchun ishlatiladi.

Askarlar qo’zg’olonchilar guruhiga ko’z yoshlantiruvchi gaz otdi.

*Pasukan keselamatan melemparkan gas pemedih mata ke arah **segerombolan** perusuh.*

**JAMBAK-** Bog’lam, dasta, tutam. Kompozitsiya (gul va b.). Atir gul, maramay guli, kalit va shu kabi maxsus qog’oz bilan bog’lanadigan gullar dastasi uchun ishlatiladi.

Maktab qorovuli mashinalar turar joyidan bir dasta kalit topib oldi.

*Pengawal sekolah menemui **sejambak** kunci di tempat letak kereta.*

**KAWAN-** Do’st, guruh, o’rtoq, poda, gala, oshna, yo’ldosh, hamrox. Hayvonlar guruhi. Echki, laylak, qush, ohu, asalari va shu kabi yuradigan hayvonlar guruhi bilan ishlatiladi.

Kecha kechqurun men zooparkda bir gala ohuga ovqat berdim.

*Ketika berada di zoo petang semalam, saya telah memberi makan kepada **sekawan** rusa.*

**KAUM-** Guruh, jamoa, jamiyat, qavm. Malay, xitoy, hind, talaba, domla va shu kabi odam va odamlar guruhi uchun ishlatiladi.

Bu hududda istiqomat qiluvchi bir qancha aholi qavmi tinch, osoyishta yashar edi.

*Beberapa **kaum** penduduk yang tinggal di kawasan itu, hidup dengan aman damai.*

**KELOMPOK**- Guruh, bog', bog'lam, bir shingil, tutam, toifa, daraja. Talaba, orol, ohu, yulduz va shu kabi insoniyat guruhi yoki ittifoqi, uyushmasi uchun ishlatiladi. Bir guruh ishchilar baland yerdagi buzilgan hududni tiklashdi.

**Sekelompok** *pekerja memenuhi kawasan runtuhan tanah tinggi itu.*

**KETUMBUKAN**- Mushtlamoq, musht bilan urmoq, buzg'unchi, yanchmoq, savalamoq. Terrorist, isyonchi, qo'zg'olonchi, harbiy, botir, qahramon, mard va shu kabi omma yoki odamlar guruhini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Jeray tog'idan bo'lgan kurash ustoz qo'zg'olonchilarga qarshi urishish uchun shogirdlardan iborat botirlarni yubordi.

*Guru persilatan daripada Gunung Jerai menghantar seketumbukan pahlawan yang terdiri daripada anak muridnya untuk melawan pemberontak itu.*

**KUMPULAN**- Guruh, gala, to'plam, bir turdagi narsalarning kolleksiyasi. Bu hisob so'z odam va hayvonlar uchun ishlatiladi.

Bino tepasida cho'kkalab o'tirgan bir gala qarg'alar shaharning go'zal manzarasini buzib turardi.

**Sekumpulan** *gagak yang bertenggek di atas bangunan mencatatkan pemandangan bandar yang indah itu.*

**LONGGOK**- To'da, uyum, to'plam, yig'im. Durian, piyoz, yog'och, baliq, qum va shu kabi uyum qilib yig'ilgan narsalar uchun ishlatiladi.

Kecha mening akam 10 ringitga bir uyum durian mevasi sotib oldi.

*Semalam abang saya membeli selonggok durian berharga RM 10.00.*

**PASUKAN**- Omma, olamon, to'da, jamoa(sport), gala, guruh. Militsiya, askar, sportchi, nazoratchi va shu kabi yunifroma kiyadigan odamlar guruhi uchun ishlatiladi.

Ikki kun avval davlatimizning milliy futbol jamoasi Koreyadagi musobaqada qatnashish uchun jo'nab ketdi.

*Dua hari lepas, sepasukan pemain bola sepak kebangsaan negara kita telah berangkat ke Korea untuk menyertai perlawanan yang diadakan di sana.*

**PARA**-guruh, olomon, to'da.

Har yili bir guruh sayohatchilar uyimiz yonidagi qadimiy joyga tashrif buyurishadi.

*Setiap tahun para pelancong melawat tempat purba yang berada di dekat rumah kita.*

**PLATUN-** Vzvod. Leytenant boshqaruvidagi, odatda uch bo'limga bo'linadigan bir guruh harbiylar (30-40 kishi) uchun ishlatiladi.

Bitta askarni qilgan xatosi sababli, bir vzvod askar daryoda ivish jazosini oldi.

*Oleh kerana kesalahan yang dibuat oleh seorang anggota, satu **platun** askar itu didenda berendam di dalam sungai.*

**RUMPUN-** Guruh, katta bo'lak, dasta, tutam, tizim. Guruch, limon o't, uzun o't, pandan o'simligi va shu kabi o'simliklarni sanash uchun ishlatiladi.

Oyim uy tomorqasiga uch dasta limon o't bilan birgalikda banan daraxtini ekdi.

*Ibu saya menanam tiga **rumpun** serai berhampiran dengan pokok pisang di belakang rumah saya.*

**TANGKAI-** Sop, dasta, band, tutqich. Gul uchun ishlatiladi. Yaproq, meva, gul va shu kabi dastalab ushlanadigan narsalar uchun ishlatiladi.

Alining sumkasida bir dasta pishgan rambutan mevasi bor.

*Di dalam beg Ali terdapat **setangkai** buah rambutan yang sudah masak.*

**TIMBUN-** To'da, uyum. Qum, axlat, chiqindi, tosh, sholi, yer, pista ko'mir va shu kabi uyum narsalar uchun ishlatiladi.

Amin o'tgan haftadan beri yuvilmagan kiyimlar uyumini yuvayapti.

*Amin membasuh **setimbun** pakaian yang belum dicuci sejak seminggu yang lalu.*

**Juft predmetlar hisobini ko'rsatuvchi so'zlar**

**PASANG-** Juft, to'plam, juft narsalar. Tufli, zirak, kelinchak, mahbub, ma'shuq va shu kabi juft narsalar uchun ishlatiladi.

Javonda har-xil o'lchamdagi to'rt juft tufli bor.

*Di tepi tangga itu terdapat empat **pasang** kasut yang berlainan saiz.*

**Og'irlik o'lchovi uchun ishlatiladigan hisob so'zlar**

**BAKUL-** Savat. Meva, sabzavot va shu kabi savatga solinadigan narsalar uchun ishlatiladi.

Sami qishloqqa juda kam kelganligi uchun Pak Samad bu sevimli bolasini mehmon qilish uchun bir savat duriyan mevasi sotib oldi.

*Oleh kerana Sami jarang pulang ke kampung, Pak Samad membeli **sebakul** durian untuk meraikan anak kesayangannya itu.*

**CEKAK-** Bo'sh barmoq bilan ushlah. Barmoq o'lchamidagi narsalar uchun ishlatiladi. Sholi, o't, limon o'ti, palma bargi qovurg'asi, uzun o't va shu kabi barmoq bilan yig'ib olinadigan va yumaloq qilib yig'iladigan narsalarga ishlatiladi. Opasi ukasiga uy tomorqasidan limon o't olib kelishni buyurdi.

*Kakak menyuruh adik mengambil **secekak** serai di belakang rumah.*

**GEMAL-** Hovuch, siqim, dasta, tutam, bog'lam, bir bosh, cekak bilan bir xil ishlatiladi. Guruch, o't, sholi poyasi, uzun o't va shu kabi yig'iladigan narsalar uchun ishlatiladi. Azamuddin qo'ylarga bir bog'lam o't berdi.

*Azamuddin memberi **segemal** rumput kepada biri-birinya.*

**KILO-** kilogram. Go'sht, sholi, shakar, tuz va shu kabi kilolab o'lchanadigan narsalar uchun ishlatiladi.

Amin bozordan bir kilogramm baliq sotib oldi.

*Amin membeli **sekilo** ikan patin di pasar.*

**Uzunlik o'lchovi uchun ishlatiladigan hisob so'zlar**

**DEPA-** Quloch, qo'lning uzunligi, yoyilgan, tortilgan. Ikkita cho'zilgan qo'l orasidagi uzunlik(masofa)ni o'lchash uchun ishlatiladi.

Oyim matoni yoyish uchun uzunligi 8 quloch keladigan arqon boyladi.

*Emak mengikat tali sepanjang lapan **depa** untuk menjemur kain.*

**EKAR-** akr. Yer, dala, sholizor va shu kabi hududlarni o'lchash uchun ishlatiladi.

Salima bolalarining Universitetda o'qishini davom ettirishi uchun o'qish badalini to'lash maqsadida ikki akr erini sotdi.

*Puan Salmah menjual dua **ekar** tanahnya untuk rnembiayai yuran pengajian anaknya menyambung pelajaran di universiti.*

**JENGKAL-** Uzunlik, masofa, kenglik(ikkala barmoq orasi). Qalam, stol, chizg'ich kabi bosh va ko'rsatkich barmoq bilan o'lchanadigan masofa yoki narsalar orasidagi masofani o'lchash uchun ishlatiladi.

Amat arqonni bir qarich qolganча tortdi.

*Pak Amat mengerat tali itu hingga panjangnya cuma tinggal **sejengkal**.*

**KAKI-** Oyoq, o'lchov, o'lcham, uzunlik o'lchovi, o'lchamoq, chamalamoq. Soyabon, qo'ziqorin va gul kabi ushlanadigan narsalar uchun ishlatiladi.

Buvim ovqat tayorlash uchun uy hovlisidan bir nechta qo'ziqorinni yig'di.

*Nenek mengutip beberapa **kaki** cendawan di halaman rumah untuk dimasak.*

**LANGKAH-** Qadam, o'lchov, me'yor, o'lcham, katta qadam, faoliyat. Yurayotgan ikkita qadam orasidagi masofani o'lchash uchun ishlatiladi.

Endigina ikki qadam tashlagan Pak Mat to'satdan do'kon yonida yiqilib tushdi, keyin o'zini o'nglay olmadi.

*Baru sahaja dua **langkah** berjalan, tiba-tiba Pak Mat jatuh di kaki lima kedai itu dan terus tidak sedarkan diri.*

### **Yumaloq narsalar uchun ishlatiladigan hisob so'z**

**BATANG-** Silindrik narsalar. Baland va uzun narsalar uchun ishlatiladi. Uzun, silindrik narsalar uchun, shuningdek ruchka, qalam, sigaret, tayoq, ustun, uzun yo'l, dengiz, yog'och to'nka va shu kabi yumaloq va qattiq narsalar uchun ishlatiladi.

Yuk mashinasi ustida zavodga olib borilishi kerak bo'lgan o'nta yog'och to'nka bor.

